

O'qitiladigan fanlar

Bakalavriat bosqichida

№	Fanning nomi	Fan haqida qisqacha ma'lumot
1	Qishloq xo'jaligi mashinalari	<p>“Qishloq xo'jaligi mashinalari” fani tuproqqa ishlov beradigan, tuproqni o'g'itlaydigan, qishloq xo'jalik ekinlari urug'larini ekaadigan, ko'chatlarini o'tqazadigan, ekinlarni parvarish qilishda, o'simliklarni zararkunanda kasalliklari va begona o'tlarga qarshi kurashishida qo'llaniladigan, pichan, em-hashak tayyorlash, o'simliklar hosilini yig'ishtirish, don tozalash va saralash, quritish, ildizmeva, poliz va sabzavot ekinlarini etishtirish, meva etishtirishda qo'llaniladigan melioratsiya va sug'orish ishlarida va boshqa ishlarni bajarishda qo'llaniladigan texnikalar va jihozlar, asbob-uskunalar va boshqalarning vazifasi, tuzilishi, sozlanishi, ishga tayyorlash, texnologik ish jarayonlari, mashina va uning ishchi qismlari parametrlarini aniqlashning nazariy asoslari haqida ma'lumotlar berilgan bakalavriat ta'lim yo'nalishi va magistratura mutaxassisliklari yo'nalishi talabalariga bilim berishga mo'ljallangan.</p>
2	CHorvachilikni mexanizatsiyalash	<p>CHorvachilikda ishlab chiqarish texnologik jarayonlari va unda qo'llaniladigan mashina va jihozlar tuzilishi, ishlash prinsipi va foydalanish qoidalari, mashinalarni tanlash va hisoblash, ishlab chiqarish texnologik jarayonlarini loyihalash asoslarini o'rgatadi.</p>
3	Qishloq xo'jaligi muxandisligi asoslari	<p>Qishloq xo'jaligida muxandislik tizimini qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash sohasidagi asosiy kashfiyotlarni, xorijiy davlatlarning qishloq xo'jaligi texnikalari to'g'risida ma'lumotlar qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan islohotlarning ma'no-mazmunini o'rgatadi.</p>

-
- | | | |
|---|---|--|
| 4 | Dastlabki qayta ishlash va saqlashni mexanizatsiyalash asoslari | Dastlabki qayta ishlash va saqlash texnologiyasi qonuniyatlari, o'simlik va chorva mahsulotlarini dastlabki qayta ishlash va saqlagichlar hamda ularda qo'llaniladigan mashina va jihozlari turlari, hisoblash asoslari, qurilmalarni tanlash va foydalanish qoidalari asoslarini o'rgatadi. |
| 5 | CHorvachilik asoslari | CHorvachilik va chorva mahsulotlari turlari, hayvonlar zotlari, parrandalarning zot va krosslari, hayvonlarning kelib chiqishi, chorvachilikda naslchilik ishi, qishloq xo'jalik hayvonlarini ratsion asosida boqish, rasion va rasion tuzish prinsiplari, hayvonlarni individual o'sish va rivojlanish qonuniyatlari, chorva hayvonlarini mahsuldorligi, sut va go'sht ishlab chiqarish texnologiyasi, urchitish usullari, chatishtirish usullari, urchitish texnikasi,; hayvonlarni o'sish va rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar, qishloq xo'jalik hayvonlar mahsuldorligini oshirish asoslarini o'rgatadi. |
| 6 | Ozuqalarni tayyorlash va saqlashni mexanizatsiyalash | CHorvachilikda mustahkam ozuqa bazasini tashkil qilish, ozuqalarni g'amlash, saqlash va to'yimli ozuqalar tayyorlash texnologiyalari, qo'llaniladigan mashina va jihozlar turlari, tuzilishi, qo'llanilish doirasi, nazariyasi va hisoblash asoslari, ulardan foydalanish qoidalari, konstruksiyasi va ish rejimlarining muayyan sharoitlar uchun ratsional ko'rsatkichlarini tanlash usullarini o'rgatadi. |

- 7 Aniq dehqonchilik asoslari “Aniq dehqonchilik asoslari” fani aniq koordinatali qishloq xo‘jaligida qo‘llaniladigan global joylashish tizimlari, geoaxborot tizimlari, masofadan zondlash usullari, tuproqni tahlil etish, aniq ekish, tabaqalashtirib ishlov berish texnologiyalari, hosildorlikni baholash (monitoringlash) texnologiyasi va ularni amalga oshirishda qo‘llaniladigan texnika vositalari, aniq dehqonchilikning iqtisodiy va ekologik aspektlari haqida bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi va magistratura mutaxassisliklari talabalariga umumiy tushuncha va bilimlar berishga mo‘ljallangan.
- 8 Qishloq xo‘jaligida innovatsion texnika va texnologiyalar “Qishloq xo‘jaligida innovatsion texnika va texnologiyalar” fani bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi talabalariga tuproqqa asosiy va sayoz ishlov berish, urug‘ ekish va ko‘chat o‘tqazish, ekinlar qator oralariga ishlov berish, kasallik va zararkunandalariga qarshi kurash, paxta terish va g‘alla yig‘ishtirish, don tozalash, bog‘dorchilik va sabzavotchilikda qo‘llanilayotgan yangi innovatsion texnika va texnologiyalar haqida tushunchalar berib, bilim va ko‘nikmalar hosil qilishni nazarda tutadi.

Sirtqi ta‘lim shaklida

- 9 Bog'dorchilik va savzovotchilik mashinalari "Bog'dorchilik va sabzavotchilik mashinalari" fani bakalavrlarga bog'dorchilik va sabzavotchilik ishlarini mexanizatsiyalash, bog'dorchilik va sabzavotchilik mashinalari, ularning tuzilishi, ishlash jarayoni, bog'dorchilik va sabzavotchilik ishlari texnologik jarayonlarini asoslash usullari, prinsiplari, ishlarni nazorat qilish, jihoz va qurilmalar o'lchamlari, parametrlari va ish rejimlarini aniqlash, mahalliy sharoitga qarab qurilma va jihozlar hamda mashinalarni tanlash, ularni ishlatish va samarali foydalanish bo'yicha bilimlarni va ularni amalda qo'llay bilishni o'rgatadi.
- 10 Qishloq xo'jaligi texnika va texnologiyalari asoslari "Qishloq xo'jaligi texnika va texnologiyalari asoslari" fani bakalavrlarga tuproqqa ishlov beradigan, o'g'itlaydigan, urug'larini ekadigan, ekinlarni parvarish qilish, kasallik va zararkunandalar hamda begona o'tlarga qarshi kurashishda qo'llaniladigan, pichan, em-hashak tayyorlash, ekinlar hosilini yig'ishtirish, don tozalash va saralash, poliz va sabzavot ekinlari, meva etishtirishda qo'llaniladigan texnikalar va texnologiyalar-ning vazifasi, texnologik ish jarayonlari, mashina va uning ishchi qismlari parametrlarini aniqlashning nazariy asoslarini va ularni amaliyotda qo'llashni o'rgatadi.
- 11 Yaylov mashinalari "Yaylov mashinalari" fani respublikamizdagi 20 mln. gektarga yaqin yaylov erlardan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida yaylov erlarning o'ziga xosligidan kelib chiqib, ularning tuprog'iga ishlov berish usullari va unda qo'llaniladigan mashinalar, yaylovlarning o'simlik qoplamini boyitish maqsadida cho'l o'simliklari urug'larini ekish, yaylovlarda o'simliklarni oziqlantirish, parvarishlash va sug'orish hamda hosilini yig'ishtirishda qo'llaniladigan mashinalarni o'rgatadi.

Magistratura bosqichida

№	Fanning nomi	Fan haqida qisqacha ma'lumot
13	Qishloq xo'jalik mashinalarida yangi texnik echimlar	“Qishloq xo'jalik mashinalarida yangi texnik echimlar” fani bo'lajak mutaxassislariga tuproqqa ishlov beradigan, urug' ekadigan va ko'chat o'tqazadigan, o'g'it sepadigan, ekinlar zararkunandalari, kasalliklari va begona o'tlariga qarshi kurashadigan, hosil yig'adigan, urug'larni tozalab saralay-digan qishloq xo'jaligi mashinalarining texnologik ish jarayoni va konstruksiyasini takomillashtirish, ishchi qismlari parametrlarini aniqlash, qishloq xo'jalik mashinalari bo'yicha yangi texnik echimlar ishlab chiqish, ishlab chiqilgan yangi texnik echimlarni asoslash va ularni amalda qo'llay bilishni o'rgatadi.
14	CHorvachilik mashinalari nazariyasi va hisobi	Ozuqalarning fizik-mexanik va texnologik xossalarini, chorvachilik mashinalarining turlari, ularning asosiy qismlarini tuzilishi va ishlash printsiplarini, chorvachilikda qo'llaniladigan jixoz va qurilmalar amalga oshiradigan texnologik ish jarayoni va texnologik parametrlarini aniqlashning nazariy asoslarini, mashinalarning va ishchi qismlarining ish rejimlarini nazariy asoslash, ishlab chiqiladigan mashinalarga qo'yiladigan zootexnika talablarini o'rgatadi.

- 15 Qishloq xo'jaligi mashinalarini loyihalash Qishloq xo'jaligi mashinalari konstruksiyasi hamda loyihalash prinsiplari va qoidalari mashinalarni yaratish bosqichlari, loyihalash tartibi, metodlari, iqtisodiy asoslash, loyihalashni avtomatlashtirishni, loyihalashning dizayn, ergonomika va ekologik jihatlarini, loyihalash va ishlab chiqarish jarayonlarining o'zaro mutanosibligini o'rgatadi.
- 16 Eksperiment natijalariga statistik ishlov berish Eksperiment natijalariga statistik ishlov berishning ahamiyati, tajriba natijalarining statistik tavsiflari va ularni hisoblash usullari, gipotezalarni tekshirishning statistik usullari, eksperiment natijalari farqining ahamiyatligini baholash, tajriba natijalarini disper-siyaviy, regressiyaviy va korrelyasiyaviy tahlil qilishni va ularni amalda qo'llay bilishni o'rgatadi.
- 17 Ilmiy tadqiqot usullari va eksperimentni rejalashtirish Ilmiy tadqiqot ishlarining eng samarali yo'llari va yo'nalishlaridan foydalanib, muayyan mashina yoki texnika bajaradigan texnologik jarayonni ob'ektiv tavsiflovchi aniq matematik modelini olishni, uni tahlil qilish asosida bajarilgan texnologik jarayonning sifatini ta'minlab beruvchi ratsional parametrlarni aniqlashni, ya'ni faol tadqiqotlar o'tkazishning asoslarini o'rgatadi.
- 18 Ilmiy -tadqiqot metodologiyasi "Ilmiy-tadqiqot metodologiyasi" fani magistratura mutaxassisligida bo'lajak magistrarga ilmiy-tadqiqot tushunchasi, ilmiy-tadqiqot ishlarining uslubiyati va tadqiqotlarda qo'llaniladigan usullar, nazariy va tajribaviy tadqiqotlar olib borish, tadqiqot natijalarini umumlashtirish, ularni rasmiylashtirishning o'ziga xos jihatlarini to'g'risida bilim va tushunchalar beradi, ilmiy-tadqiqotlar metodologiyasi bo'yicha ko'nikmalar hosil qiladi.

- 19 Muhandislik tadqiqotlari o'lchov vositalari "Muhandislik tadqiqotlari o'lchov vositalari" fani magistratura mutaxassisligida magistrarlarga qishloq xo'jaligi mashinalari ishchi qismlari bilan o'zaro ta'sirda bo'ladigan tuproq, o'simlik va boshqa ishlov beriladigan materiallarning fizik-mexanik xossalari, qishloq xo'jaligi mashinalarining ish sifati, texnik-ekspluatatsion va energetik ko'rsatkichlarini aniqlashda foydalaniladigan o'lchov vositalari va asbob uskunalari, ulardan foydalanish bo'yicha bilim va tushunchalar beradi.
- 20 Qishloq xo'jalik mashinalarining nazariyasi va hisobi Mexanizatsiya vositalari ta'sir ko'rsatadigan ob'ektlarning fizik-mexanik va texnologik xossalarini, qishloq xo'jalik mashinalarining turlari, ularning asosiy qismlarini tuzilishi va ishlash jarayonlarini, tuproqqa asosiy va sayoz ishlov berish, o'g'it solish, o'simliklar urug'i va ko'chatlarini ekish hamda parvarishlash, kasallik va zararkunandalardan himoya qilish, qishloq xo'jalik ekinlari hosilini yig'ib-terib olish, dastlabki ishlov berish usullari va ularni amalga oshiradigan mashinalarning texnologik ish jarayoni va texnologik parametrlarini aniqlashning nazariy asoslarini, mashinalarning va ishchi qismlarining ish rejimlarini nazariy asoslash, ishlab chiqiladigan mashinalarga qo'yiladigan agrotexnika talablarini o'rgatadi.